E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

UDK 616-00 DOI 10.53065

Virusli gepatit etiologiyali jigar sirrozi bilan kasallangan bemorlarda jigarning postkovid shikastlanishi

Djumayeva Nasiba Sobirovna

Samarkand Davlat tibbiyot universiteti

Annotasiya: Jigar sirrozi kabi jigar patologiyalari organizmda chuqur o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi. Yangi virusli infeksiya SARS-2 qo‘shilishi jarayonning yashin tezligida rivojlanishiga turtki berdi. Tadqiqot davomida turli etiologiyali jigar sirrozi bilan kasallangan bemorlarda COVID-19 ta’siri o‘rganildi. Postkovid sindromini o‘rganish maqsadida, anamnezida COVID-19 tasdiqlangan va anamnezida COVID-19 bo‘lmagan bemorlar ikki guruhga ajratilib, klinik va laborator ma’lumotlari tahlil etildi. Jigar sirrozi bilan kasallangan bemorlarda postkovid sindromini o‘rganish maqsadida, anamnezida COVID-19 bor bemorlar chuqur laborator tekshiruvlar o‘tkazildi, jigar holati funksional va instrumental tekshirildi.

Kalit so‘zlar: Jigar sirrozi, virusli gepatit, COVID-19, postkovid sindromi.

Annotation: The liver cirrhosis is a serious violation of the integrity of the body. The accession of the new viral infection SARS-COV-2 gave an impetus for lightning fast progression of the process. We conducted a study of the influence of Covid-19 on cirrhosis of the liver of various etiologies. In order to study the features of the post-shoe syndrome, the clinical and laboratory data of patients with cirrhosis of the liver of various etiologies, which have a history of confirmed Covid-19 and do not have a history of Covid-19. In order to study the post-shoe syndrome in patients with cirrhosis of the liver, patients with COVID-19 in a history of laboratory tests were conducted, the liver condition was functionally and instrumentally tested.

Key words: Cirrhosis of the liver, hepatitis, Covid-19, non-alcoholic steatogepatitis, post-shoe syndrome.

KIRISH. Jigar patologiyalari orasida jigar sirrozi sog‘liq uchun jiddiy xavf tug‘diradi va bu kasallikning uchrash chastotasi oxirgi yillarda ko‘paydi. Jigar sirrozning eng keng tarqalgan sabablari surunkali gepatit B va C xisoblanadi. Bundan tashqari, jigar sirrozi alkogol va alkogolga bog‘liq bo‘lmagan steatogepatit bilan bog‘liq [2]. So‘nggi yillarda virusli gepatit B va C larning oldini olish va davolash bo‘yicha samarali davo profilaktik usullari ishlab chiqarilishiga qaramay, rivojlanayotgan davlatlarda jigar sirrozning asosiy sababi virusli gepatitlar hisoblanadi. Mutaxassislarning fikricha, yaqin kelajakda virusli gepatit B va C ta’siri zaiflashadi va alkogolga bog‘liq bo‘lmagan steatogepatit birinchi o‘ringa chiqadi. Jigar sirrozi kasalligi zo‘rayib boruvchi jigar fibrozining oxirgi bosqichidir,bunda jigar arxitekturasi va faoliyati buzilishi kuzatiladi. Jigar patologiyalari orasida jigar sirrozi butun dunyoda kasallanish va o‘limning asosiy sababi xisoblanadi, ammo kasallik og‘irlik darajasi va kasallik sabablari turli mintaqalar va demografik guruxlarda farq qiladi. [1]. Jigar sirrozining rivojlanishidagi asosiy patogenetik omillar parenxima nekrozi, gepatotsitlar destruksiyasi, zo‘rayib boruvchi fibroz va jigar qon tomirlarining o‘zgarishidir. Gepatotsitlar nekrozida xujayralar regeneratsiyasini rag‘batlantiruvchi moddalar (sitokinlar, xemokinlar va o‘sish omillari) ajralib chiqadi. Jigarning normal qon tomir arxitektonikasining buzilishi, odatda 3-7 mm sim.us.dan oshmaydigan darvoza tomirlari tizimidagi bosimning oshishiga olib keladi. [3]. Koronavirus kasalligi (COVID-19) ning dune bo‘yicha tarqalishi sog‘liqni saqlash tizimida global, jiddiy muammolarni tug‘dirdi. Ko‘pgina tadqiqotlar COVID-19 bilan kasallangan bemorlarda oshqozon-ichak va jigardagi zararlanishlar haqida ma’lumot bermoqda [4-8]. COVID-19 kasalligining og‘ir shakllari ko‘pincha qariyalar, hamroh kasalliklari bor bemorlarda, shu jumladan astma, yurak qon tomir tizimi kasalliklari, qandli diabet, arterial gipertoniya, o‘pka kasalliklari, buyrak surunkali kasalliklari, saraton kasalligi, semirish, psixoaktiv moddalar iste’moli va ruhiy buzilishlar

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

mavjud insonlarda kuzatildi [9, 14]. COVID-19 pandemiyasi butun dunyo bo‘ylab tez suratlarda tarqalib ketdi. SARS-CoV-2 infeksiyasi jigar patologiyasi mavjud bemorlarda jigarning shikastlanishiga olib kelishi tadqiqotlarda o‘z aksini topgan. COVID-19 bilan kasallangan bemorlarda jigar fermentlari ko‘rsatkichlari o‘zgarishi, kasallik og‘irlik darajasi bilan bog‘liq. Jigar fermentativ ko‘rsatkichlarining buzilishi, boshqa tekshiruvlar o‘tkazilishini talab qiladi. COVID-19 simptomlari rivojlanishidan keyin kelib chiqqan COVID-19 kasalligi belgilari bemorda o‘tkir davr tugallanganidan keyin 12 xaftadan ko‘proq davom etib, boshqa tashxislar bilan asoslanmasa postkovid sindromi deb yuritiladi. Postkovid sindromi respirator, kardial, gastrointestinal, renal, endokrin, nevrologik, psixologik, revmatik, dermotologik va nutritiv yetishmovchilik sifatida kelib chiqadi. Postkovid sindromning gastrointestinal varianti dispepsiya, diareya, jigar funksiyasining buzilishi (sitoliz, jigar ichi xolestazi) sifatida namoyon bo‘ladi. [15]. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, turli darajadagi jigar funksiyasi buzilishi mavjud bemorlarda, asosan, bilirubin konsentratsiyasining yengil o‘sishi, AST va ALT konsentratsiyasi ko‘rsatkichlari o‘zgarishi bilan kuzatiladi [16,19].

Tadqiqot maqsadi: virusli gepatit etiologiyali jigar sirrozi bilan kasallangan bemorlarda postkovid sindromi kechishini tahlil qilish.

Tadqiqot usullari: tadqiqot davomida Samarqand viloyat yuqumli kasalliklar klinik shifoxonasida “Surunkali gepatitlar” bo‘limidagi “Virusli gepatit etiologiyali jigar sirrozi” tashxisi bilan yotqizilgan 40 bemorlarda retrospektiv tahlil o‘tkazildi. Bemorlarning o‘rtacha yoshi 50,3- /+11,4 ni tashkil etdi. Kuzatuvdagi bemorlar ikki guruhga ajratildi:

1 guruh (asosiy) – anamnezida COVID-19 kasalligini o‘tkazgan bemorlar;

2 – guruh (nazorat) –COVID-19 kasalligini o‘tkazmagan bemorlar.

Tadqiqot natijalari. Kuzatuvdagi bemorlar shikoyatlari o‘rganilganda: holsizlik (95%), tez charchash (100%), o‘ng qovurg‘a yoyi ostidagi og‘irlik (44,8%) vaqti vaqti bilan kuzatiladigan o‘ng qovurg‘a ostidagi og‘riq (77,6%), bo‘g‘imlardagi og‘riq (21%), teridagi papulyoz toshma (8,6%), ishtahaning pasayishi (72,4%), ko‘ngil aynishi (51,7%), burundan qon ketishi (15,5%) qayd etildi. Ikkala guruhdagi bemorlarda shikoyatlar uchrash teziligi bo‘yicha sezilarli farq aniqlanilmadi. Ko‘rikda teri qoplamalari va ko‘rinarli shilliq qavatlarda ko‘pchilik bemorlarda (72,4%), teri subikterikligi aniqlanildi. 72,4% foiz bemorlarda jigar o‘rtacha zichlikda,o‘ng qovurg‘a yoyidan taxminan 2-3 sm pastda paypaslandi, taloq o‘lchamlari esa norma chegarasida ekanligi aniqlanildi. Asosiy guruhdagi bemorlarda aksariyat qismida jigar o‘lchamlarining kattalashganligi qayd etildi.


Umumiy qon tahlili ko‘rsatkichlari taxlil qilinganda: 54,7% bemorlarda kamqonlik yengil shakli, 18,9% da kamqonlik o‘rta og‘ir shakli, qolgan bemorlarda kamqonlik og‘ir shakli aniqlanildi. Kamqonlik og‘ir shakli asosan asosiy guruhdagi bemorlarda kuzatildi. Jigar bioximiyasida AST va ALT ko‘rsatkichlari 51% bemorlarda 3 baravar, 27 % bemorlarda 2 baravar, 22% bemorlarda 1,5 oshganligi qayd etildi. Kliniko laborator tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, asosiy guruhdagi bemorlarda jigar fermentlari yuqori ko‘rsatkichlari qayd etildi. Nazorat guruhidagi bemorlarda fermentlar faolligining past darajasi aniqlanildi.

Asosiy guruhdagi bemorlarda: PTV 22; PTI 90,2%.Umumiy oqsil-71,5 g/l. Albumin 42,0-; Glyukoza 5,2 Kreatinin 112 Mochevina 8,0 Qoldiq azot 26,0 Suxarev bo‘yicha qon ivish ko‘rsatkichi: boshlanishi: 03:41. Tugashi:04:49.

Nazorat guruhidagi bemorlarda: Umumiy oqsil-71,5 g/l. Albumin 42,0-; Glyukoza 5,2 Kreatinin 112 Mochevina 8,0 Qoldiq azot 26,0 Suxarev bo‘yicha qon ivish ko‘rsatkichi: boshlanishi: 03:41. Tugashi: 04:49.

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

Asosiy guruhdagi bemorlarda qon bioximiyasida: Albumin miqdorining pasayishi aniqlandi. Postkovid sindromi kuzatilgan jigar sirrozi bilan kasallangan bemorlarda fermentlarning yuqori darajadagi faolligi nazorat guruhiga nisbatan ko‘p uchradi. Asosiy guruhdagi bemorlardan 45,6% “Jigar sirrozi. Virus etiologiyali. Chayld Pyu bo‘yicha S sinfi. Dekompensatsiya bosqichi”, 25,9% “Jigar sirrozi. Virus etiologiyali. Chayld Pyu bo‘yicha B sinfi. Subkompensatsiya bosqichi”, 28,5% bemorlarga “Jigar sirrozi. Virus etiologiyali. Chayld Pyu bo‘yicha A sinfi. Kompensatsiya bosqichi” tashxisi qo‘yilgan. Nazorat guruhidagi bemorlarda kasallikning asosan kompensatsiya va subkompensatsiya shakllari ustunlik qilgan. Shuningdek, asosiy guruhdagi bemorlarda jigar sirrozining splenomegaliya (27,5%), gipersplenizm (12,3%), portal gipertenziya sindromi (21,8%), gemorragik sindrom (8,9%), gepatorenal sindrom (12,8%), gepatopulmonal sindrom (16,7%) bilan kechishi kuzatildi. Nazorat guruhidagi bemorlarda splenomegaliya (20,5%), gipersplenizm (18,3%), portal gipertenziya sindromi (17,3%), gemorragik sindrom (4,9%), gepatorenal sindrom (9,8%), gepatopulmonal sindrom (4,7%), shish-assit sindromi (24,5%) bilan kechishi qayd etildi.



№1.Rasm. Bemorlarning fibroskan natijalariga ko‘ra taqsimlanishi

14,2 kPa dan 18,4 kPa gacha –31,1% kuzatuvdagilarda kuzatildi.

18,4 kPa dan 25,9 kPa gacha 29,3% bemorlarda aniqlanildi.

25,9 kPa dan 35,9 kPa gacha 29,3% bemorlarda aniqlanildi.

35,9 kPa dan 75 kPa gacha 29,3% bemorlarda aniqlanildi.

Xulosa. Virusli etiologiyali jigar sirrozi bilan kasallangan postkovid sindromida jigar fermentativ aktivligining oshishi COVID-19 kuzatilmagan bemorlar bilan taqqoslanganda nisbatan ko‘p qayd etildi. Shuningdek, ishqoriy fosfotaza va gammaglyutamiltranspeptidaza, ALT va AST miqdori qatorida yuqori ko‘rsatkichlarga ega. Qon biokimyoviy tahlilida S-reaktiv oqsil miqdorining ham oshishi, qon zardobidagi oqsil miqdorining kamayishi va protrombin vaqtining cho‘zilishi aniqlanildi, bu jigar sintetik faoliyatining buzilishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шодиева Д. А., Ташпулатов Ш. А., Джумаева Н. С. ВНЕШНЕЕ ДЫХАНИЕ ПРИ БОТУЛИЗМЕ У ДЕТЕЙ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ СТЕПЕНИ ТЯЖЕСТИ ОСНОВНОГО ПРОЦЕССА //Вопросы науки и образования. – 2021. – №. 6 (131). – С. 35-43.

2. Джумаева Н., Абдухамитова М., Шодиева Д. Клинико-лабораторная характеристика паротитной вирусной инфекции у взрослых в современных условиях //Журнал вестник врача. – 2012. – Т. 1. – №. 04. – С. 54-57.

3. Джумаева Н. С., Восеева Д. Х., Абдурахмонова З. Э. Современный взгляд на лечение лямблиоза //Достижения науки и образования. – 2020. – №. 16 (70). – С. 65-69.

4.Sobirovna D. N., Zakirovna U. G., Abdujalolovna S. D. Post-covid syndrome in new coronavirus infection //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 6. – С. 1106-1112.

5.Култаева Н. Ж., Джумаева Н. И. Развитие организаторских способностей студентов высших учебных заведений //Молодой ученый. – 2014. – №. 9. – С. 491-493.

6.Джумаева Н., Абдухамитова М., Шодиева Д. Клинико-лабораторная характеристика паротитной вирусной инфекции у взрослых в современных условиях //Журнал вестник врача. – 2012. – Т. 1. – №. 04. – С. 54-57.

7.Джумаева Н. и др. Характеристика клинических проявлений гипоксически-ишемического поражения у новорожденных в остром периоде //Журнал проблемы биологии и медицины. – 2016. – №. 2 (87). – С. 49-52.

8.Шодиева, Д., Рустамова, Ш., Абдухамитова, М., & Джумаева, Н. (2012). Ротавирусные гастроэнтериты. Журнал вестник врача, 1(04), 142–144. https://inlibrary.uz/index.php/doctors_herald/article/view/10850

9. Шодиева Г. Р., Ибрагимова Э. Ф. КОМОРБИДНОСТЬ ПРИ БРОНХИАЛЬНОЙ АСТМЕ //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – С. 264-266.

10. Rustamova Sh.A., Ernazarov A.M. Klinicheskie proyavleniya xronicheskogo virusnogo gepatita V u bolnыx VICh-infeksiey // Problemы biologii i meditsinы. - 2014 - №.3.- S. 112.

11.Yarmuxamedova N.A., Xodjaev N.I., Rustamova Sh.A., Ernazarov A.M. Klinicheskaya i laboratornaya diagnostika XVGV u VICh infitsirovannыx // Problemы biologii i meditsinы. – 2015. - №.4 (85). - S. 173.

12. Yarmuxammedova N.A., Rustamova Sh.A., Karamatullaeva Z.E. Surunkali virusli gepatit V ning OIV infeksiyasi fonida klinik kechish xususiyatlari // Problemы biologii i meditsinы. – 2017. - №2 (94). - S. 162-167.

13.Мустаева Г. Б. Особенности течения клебсиеллезной инфекции по данным самаркандской областной клинической больницы //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 18-2 (96). – С. 81-85.

14.Ярмухамедова Н. и др. Клинико эпидемиологическое течение коклюша у детей в самаркандской области //Журнал проблемы биологии и медицины. – 2016. – №. 3 (89). – С. 124-124.

15. Шодиева Г. Р. Роль Цитокинов у больных циррозом печени вирусной этиологии //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 10-4 (88). – С. 104-106.